



MULKDORLAR SINFINI TUGATILISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI

Ubaydullaev I.A.

*University of Business and science nodavlat oliy ta'lim muassasasi
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti*

Tayanch so'zlar: mulkdor, geoiqtisodiyot, geoiqtisodiy tafakkur, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy tanazzul, iqtisodiy zamin, mustamlaka, tashmachilik siyosati, tashqi iqtisodiy munosabat.

Ключевые слова: собственник, геоекономика, геоекономическое мышление, национальная экономика, экономический спад, экономическое пространство, колония, внешняя экономическая отношения.

Key words: the proprietor, geoeconomy, geoeconomic thinking, national economy, economic recession, economic space, a colony, external economic relations.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida o'zbek xalqining boshiga katta kulfatlar yog'ildi: avval Chor Rossiyasi bosqinchilari, keyin esa rus bolsheviklari tomonidan butun Turkiston zabt etilib, unda yashovchi barcha xalqlarning mol-mulki talon-taroj qilindi, mulk egalari esa milliy va sinfiy dushman sifatida yo'q qilindi. Tarixiy jarayonlar rivojining bosqinchilar foydasiga hal bo'lishi oqibatida mulkdorlar sinfi avval haq-huquqlaridan, keyinchalik esa butun mol-mulkidan judo qilindi. Natijada mulkdorlar sinfiga qo'shilib ularning geoiqtisodiy tafakkuri ham inqirozga yuz tutdi. Buni quyidagi tarixiy dalillar misolida ko'rishimiz mumkin.

Tarixdan shu narsa ma'lumki, Turkiston xalqi 60 yildan ortiqroq vaqt mobaynida Chor Rossiyasi zulmi ostida bo'ldi. Chorizm Turkiston xalqlariga nisbatan mustamlakachilik siyosatini olib borishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratdi.

1. Rus mustamlakachilari tekin xomashyo va turli daromadlarga ega bo'lish uchun mulk masalasini qayta ko'rib chiqib, ularni o'zlarining foydasiga qayta taqsimlash siyosatini amalga oshirdilar. Aniqlik, mulkka egalik qilish huquqini zo'rlik, joyi kelsa aldov yo'li bilan qo'lga kiritdilar. Bu xususda 1867–



1882 yillarda Turkiston general-gubernatori bo'lgan K. P. Kaufman o'zining rus podshosiga yozgan hisobotida: “Juda tezlik bilan yerga imtiyozli ravishda egalik qilish, mulk va vaqf yerlari haqidagi masalalar yuzasidan qonun tarzidagi qaror nihoyatda zarur. O'zlarining yerga bo'lgan da'volarini himoya qiluvchi mulk egalari va musulmon ruhoniylari aholining zodagonlar sinfini tashkil etib, ular bizga siyosiy jihatdan dushman hisoblanadi”¹, – degan fikrni bildirgan edi. Natijada, K. P. Kaufman mahalliy xalqlar davlatchiligining negizi – yerga bo'lgan xususiy mulkchilik huquqini buzgan holda barcha mulklarni chorizm foydasiga qayta taqsimlashni amalga oshirdi.

Yerga bo'lgan xususiy mulkchilikning asta-sekinlik bilan chorizm foydasiga hal qilinishi mahalliy xalq mulkdorlarining azaldan shakllangan iqtisodiy madaniyati ham tanazzulga uchrashiga sabab bo'ldi. Endilikda ular mustamlakachilarga majburiy ravishda turli-tuman soliqlar to'lay boshladilar. Bu esa, o'z navbatida, Turkiston xalqlarining mol-mulklari hisobiga chorizm xazinasining boyishiga olib keldi. Masalan, Chor Rossiyasining 1869–1896 yillarda Turkiston o'lkasidan olgan daromadi 158 mln. rubl bo'lgan². Chor Rossiyasining bunday talonchilik siyosati mahalliy mulkdorlar sinfining iqtisodiy tafakkurini bo'g'ib, uning paydo bo'lishiga imkon bermadi.

2. Chor Rossiyasi mahalliy aholining qo'lidagi barcha boyliklarni qanday yo'l bilan bo'lmasin talash siyosatini yuritdi. Masalan, mustamlakachilar O'rta Osiyoni bosib olish jarayonida Buxoro amiridan 500 ming, Xiva xonidan 450 ming rubl tovon undirgan bo'lsalar, Qo'qon xoni saroyini batamom talan-toraj qilganlar; Andijondan 33 ming rubl, Marg'ilon bekligidan 125 ming tilla (500 ming rubl) tovon puli undirib olganlar. Mustamlakachilar bir yilda xalqdan zakot sifatida 1 854 682 rubl, o'tov solig'i tarzida 8 278 845 rubl, yer solig'i sifatida 2 651 044 rubl, jon solig'i sifatida – 53 417 rubl, savdo solig'i tarzida 3 406 310 rubl, jami 16 244 298 rubl undirib olganlar (Farg'onadan tashqari). Umuman olganda, Chor hukumatining Turkiston aholisidan olgan soliqlari 1913 yilda 23 mln. rublni tashkil etgan bo'lsa, 1916 yilda bu ko'rsatkich 33,3 mln. rublga yetgan³. Bunday behisob tekin foyda rus korchalonlarining mustamlakachilikka asoslangan geoiqtisodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qilgan bo'lsa, ajab emas. Ammo u mahalliy xalq mulkdorlarining tobora qashshoqlanishiga olib kelganligi tarixiy haqiqatdir.

3. Chor Rossiyasi Turkiston xalqlariga nisbatan tashmachilik siyosatini amalga oshirdi. Ayniqsa, rus mulkdorlariga tegishli bo'lgan to'qimachilik va tikuvchilik fabrikalarining paxta mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyojlarini qondirish maqsadida Turkiston o'lkasining milliy boyligi bo'lgan paxtani suv tekinga tashib ketish chora-tadbirlarini ko'rdi. Masalan, 1887–1896 yillarda



O'рта Osiyodan Rossiyağa 26 mln. pud paxta tolasi olib ketilgan va uning har bir pudi Amerika paxtasidan 2 rubl 38 tiyin arzon bo'lgan. Natijada, Rossiya imperiyasining xazinasini tejaliib, 61 mln. rubl foyda ko'rgan. Turkistondan paxta olib kelish, olib-sotish bilan shug'ullanganlar esa har bir pud paxtadan 1 rubl foyda qilgan, demak, 26 mln. pud paxtadan 26 mln. rubl foyda ko'rgan⁴.

Bulardan tashqari, rus mustamlakachilarining tashmachilik siyosatini Farg'ona viloyati misolida ham ko'rish mumkin. Birgina, Farg'ona viloyatidan 1904 yilda 309 267 pud quruq meva, 84 516 pud ipak va pilla, 14 585 pud jun, 104 107 pud paxta yog'i, 34 170 pud qo'y terisi, 1 341 281 pud paxta chigiti, 161 591 pud guruch, 92 894 pud bug'doy uni temir yo'llar orqali Rossiyağa tashib ketilgan⁵. Shuning uchun ham rus hukmron doiralari va ularning xorijdagi hamtovoqlari "Turkiston – Rossiya tojidagi bebaho durdir" degan naqlni ko'p ishlatishni yaxshi ko'rishgan. Ushbu misollardan shunday xulosaga kelish mumkinki, chorizm qanday bo'lmasin Turkiston xalqlarini ezish evaziga ulkan foyda olishni ko'zlab ish yuritgan. Ular tomonidan qurilgan zavod va fabrikalar, temir yo'llar, ochilgan maktab va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarning barchasi ana shu yagona strategik maqsadga xizmat qilgan. Bularning barchasi Turkiston xalqlarining ilmiy falsafiy dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatib, asta-sekin o'zligidan judo bo'lishiga olib kela boshlagan.

Chorizmdan so'ng, o'tgan 70 yildan ortiqroq vaqt mobaynida o'zbek xalqi sobiq ittifoq tarkibida bo'lib, bolsheviklarning o'zga xalqlarga nisbatan yuritgan qonli siyosati natijasida o'zining tarixi, tili, dini, mol-mulki, minglab elparvar, vatanparvar, aqli dono, mard farzandlaridan judo bo'lib, noilojlikdan "kreml"ga hamdu sanolar aytishga, mutelikda, qashshoqlikda kun kechirishga majbur bo'ldi. Xullas, siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritgan bolshevik-kommunistlar o'zlarining yuritgan "proletarcha siyosati" tufayli mulkdorlarni sinfiy dushman sifatida tugatib, uning geoiqtisodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladigan barcha moddiy va ma'naviy zaminlarni ham yo'q qilib tashladilar.

Sobiq Ittifoq rahbarlari, Rossiya imperatorlaridan farqli o'laroq, xususiy mulkni insoniyatning dushmani deb bilgan holda barcha mulkdorlarni yo'q qilishga kirishdilar. Xullas, sobiq Ittifoq boshliqlarining umuman mulkdorlarga, xususan o'zbek mulkdorlari sinfiga nisbatan olib borgan shakkokona siyosatini quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Siyosiy hokimiyatni egallagan bolshevik-kommunistlar K. Marks va F. Engels tomonidan ishlab chiqilgan proletarcha sinfiy kurash nazariyasiga muvofiq, xususiy mulkni odamlar o'rtasidagi tengsizlik va azob-uqubatlarning sababchisi deb bilgan holda, uni qonundan tashqarida deb e'lon qildilar va shunga muvofiq mulkdorlar sinfini dushman kuch sifatida jismonan tugatishga



kirishdilar. Mulkdorlarning sinf sifatida tugatilishi natijasida kishilarning ongida oxir-oqibatda boqimandalik kayfiyatiga asoslangan iqtisodiy tafakkur shakli paydo bo'ldi. O'zining mol-mulki bo'lmagan xalq davlat mulkini ko'paytirish, uni asrab-avaylash, tejab-tergab ishlatish haqida o'ylamay qo'ydi. Bunday boqimandalik kayfiyatiga asoslangan iqtisodiy tafakkur tarzi geoiqtisodiy tafakkurning paydo bo'lishiga keskin tarzda to'sqinlik qildi.

2. Bolshevik-kommunistlar hokimiyati o'zbek mulkdorlarini sinf sifatida tugatishda shafqatsizlarcha ish tutdilar. Ular mamlakatdagi barcha mulkdorlarning mol-mulkini tortib olib, o'zlarini jismonan yo'q qilishga kirishdilar, otib o'ldirishga ulgurmaganlariga esa “quloq” degan tamg'a bosib mamlakatning borsa kelmas joylariga surgun qildilar. Bundan tashqari, mulkdorlarning boshiga tushgan og'ir qismatga xayrixoh yoki bolsheviklarning mulkdorlarga nisbatan yuritayotgan siyosatidan norozi ziyolilarni ham “xalq dushmani” sifatida qatag'on qildilar. Natijada, sobiq ittifoqda 1930–1953 yillar orasida 3 778 234 kishi qatag'onga uchragan bo'lsa, ulardan 786 098 kishi otib tashlanganligi hech kimga sir bo'lmay qoldi. Birgina O'zbekistondan shu yillar mobaynida 100 ming kishi qamoqqa olinib, ularning 15 ming nafari otib tashlangan⁶. Bunday qatag'onlar mahalliy aholini qo'rquvga soldi, odamlarni “manqurt”ga aylantirib, markscha-lenincha falsafiy ta'limotning qullariga aylantirdi. Shu tariqa, asrlar davomida shakllanib kelgan sharqona milliy iqtisodiyot zaminlariga bolta urilib, egasidan begona bo'lgan proletarcha iqtisodiy madaniyatni shakllantirishga harakat qilindi.

3. O'zbekistonda mulkdorlar sinfini tag-tomiri bilan yo'qotish ishlari bolsheviklar rahbarligidagi sovet hokimiyati tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi belgilar asosida “quloq” qilish bahonasida amalga oshirildi:

- 1) surunkali yollanma mehnatdan foydalanganlar;
- 2) tegirmon, moyjuvoz va shunga o'xshash ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lganlar;
- 3) surunkali yoki mavsumiy ravishda mehnat qurollari, ish hayvonlari va binolarni ijaraga berayotganlar;
- 4) surunkali ravishda qishloq xo'jaligi vositalarini ijaraga berayotganlar;
- 5) sudxo'rlik, savdogarlik, vositachilik bilan shug'ullanib, mehnatsiz daromad topayotganlar⁷.

Natijada, 1929 yil 27 dekabrda keyingi 65 kun ichida 130 milliondan ziyod dehqon mol-mulkidan zo'rlash tufayli ajraldi, ularning evaziga esa kolxozlar tashkil qilindi. Xuddi shuningdek, 1929 yil oxiridan 1930 yil o'rtalarigacha 320 mingdan ziyod quloq xo'jaliklari tugatildi. Ularning 175 million so'm qimmatga ega bo'lgan mulki, buyumlari kolxozlarning bo'linmas fondiga

topshirildi⁸. Umuman olganda, O'zbekistondan 1930–1933 yillarda 5,5 ming nafar dehqon quloq qililib, o'zga yurtlarga surgun qilindi, ularning ko'pchiligi it azobida o'lib ketdi⁹. Bu bolsheviklar tomonidan mulkdor dehqonlarga nisbatan amalga oshirilgan genotsiddan boshqa narsa emas edi. Shunday qilib, «quloqlar»ni tugatish oqibatida dehqonchilik sohasi eng tadbirkor, epchil, o'ziga to'q, mustaqil ish ko'ruvchi, xo'jalik yurituvchi mulkdorlardan mahrum bo'ldi. Bu bilan kelgusida jahon hamjamiyatiga mos ravishda shakllanadigan geoiqtisodiy tafakkurning moddiy zaminlari yo'q qilindi.

4. Sovet hokimiyati ham O'zbekistonga nisbatan tashmachilik siyosatini izchillik bilan amalga oshirdi. Buni quyidagi misollarda ko'rish mumkin. O'zbekiston har xil bahonalar bilan paxtachilikka ixtisoslashtirilishi natijasida 70–80-yillarda sobiq Ittifoqda yetishtiriladigan umumiy paxta miqdorining 2/3 qismini yetkazib berardi. 1976–1985 yillarning o'zida O'zbekistondan 15 345 ming tonnadan ortiq paxta tolasi olib ketildi. Uning 70 % idan ko'prog'i jahon bozorlarida sotilib, katta foyda ko'rildi¹⁰. Jahon bozorida O'zbekistonda yetishtiriladigan qorako'l terisiga talab katta bo'lgani bois 1971–1990 yillar oralig'ida Markaz ixtiyoriga 40 mln. donadan ortiq qorako'l teri olib ketildi¹¹. O'zbekiston sobiq ittifoq mamlakatlarida ishlab chiqariladigan oltinning qariyb 50% ini yetkazib berardi. N. Kucherskiy bu haqda: “Birgina Navoiy kon-metallurgiya kombinatining konchilari tomonidan qazib olingan boyliklar yiliga milliard dollarlab foyda keltirardi. Uning qiymatini O'zbekiston vohasida yetishtiriladigan jami paxta tolasi bilan qiyoslasa bo'ladi”¹², – degan edi.

Sobiq ittifoq hukmron doiralarning o'zbek xalqiga nisbatan olib borgan bunday siyosatining tub mohiyati haqida Prezident I. A. Karimov shunday deb yozgan edi: “Bir necha o'n yillar mobaynida respublika iqtisodiyoti Markazdan boshqariladigan yagona xalq xo'jaligi majmuining tarkibiy qismiga aylangan edi. Markaz qabul qiladigan ko'pgina qarorlar O'zbekistonning manfaatlaridan yiroq edi. Xullas, chor imperiyasi davridagidek, respublika arzon xomashyo va strategik mineral resurslar yetkazib beruvchi, tayyor mahsulot sotiladigan qulay bozorga aylanib qolaverdi, ya'ni respublika xomashyo bazasi bo'lib keldi”¹³.

5. Sobiq ittifoq “rivojlangan sotsializm” pallasiga kirgan bir vaqtda sog'lig'ini, qolaversa jonini ayamasdan, jazirama issiq va zaharli kimyoviy moddalarning xurujiga bardosh berib, arzimagan ish haqi hisobiga paxta yetishtirayotgan o'zbek xalqiga nisbatan Markaz tomonidan to'qib chiqarilgan “paxta ishi” bahonasida amalga oshirilgan qatag'onlar hammasidan oshib tushdi. Markazning ko'rsatmasi bilan Gdlyan va Ivanov rahbarligida tashkil etilgan qonsiragan tergovchi-jallodlar guruhi “paxtachilik sohasidagi korrupsiya”ga qarshi kurash bahonasida 40 mingdan ortiq fuqarolar tergov qililib, kolxoz raislari



va sovxoz direktorlarining 60 %, qishloq xo'jaligi yetakchi mutaxassislarining 45 %, paxtachilik brigadasi boshliqlarining uchdan bir qismi vazifalaridan olindi, 5000 dan ortiq odam jinoiy jazoga tortildi, ularning aksariyati Sibirdagi qamoqxonalarga jo'natildi¹⁴. Bu ish, aslida, qizil imperiyachilar tomonidan muntazam ravishda har xil bahonalarni ro'kach qilish asosida mahalliy aholini qo'rquvga solib, qullik iskanjasida saqlab turish maqsadida amalga oshirib turiladigan «kreml»cha qatag'onlarning yangi to'liqini edi.

Holbuki, paxta yakkahokimligi, iqtisodiyotning xomashyo ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi, xarid narxlarning pastligi, Markazning paxta yetishtirish nihoyatda sermehnat ekanligini inkor qilishi tufayli respublika agrar sohasidagi ish kuchining qiymati sobiq ittifoqdagi eng past ko'rsatkichlardan hisoblanardi. Masalan, 80-yillarning o'rtalarida kolxozchining bir ish kuniga O'zbekistonda 5 so'm 88 tiyin, Tojikistonda 6 so'm 4 tiyin, Qirg'izistonda 6 so'm 90 tiyin, Turkmanistonda 7 so'm 3 tiyin, RSFSRda 8 so'm 3 tiyin, Litvada 9 so'm 90 tiyin, Estoniyada 14 so'm 4 tiyin haq to'langan¹⁵. Bu birinchi navbatda paxtakorlar mehnatiga nihoyatda kam haq to'lanishi bilan bog'liq edi. Aytish kerakki, g'allakorning 1 soatlik mehnatiga 62,5 tiyin to'langan holda, paxtakornikiga atigi 16 tiyin to'lanardi¹⁶.

Respublikaning paxtachilikka haddan tashqari ixtisoslashtirilganligi oqibatida g'alla va go'shtning qariyb 70 %, kartoshkaning 60 %, qand-shakar, quritilgan sut va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarining hammasi chetdan keltirilardi¹⁷.

Sovet imperiyasi tarqalib ketish paytida O'zbekistonning fuqarosi sobiq ittifoq mamlakatlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan deyarli ikki baravar kam go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va tuxum iste'mol qilardi. Xususan, fiziologik norma bo'yicha 82 kg. go'sht o'rniga ittifoq bo'yicha aholi jon boshiga 60 kg. iste'mol qilingani holda, respublikada atigi 30 kg. go'sht iste'mol qilingan; sut tegishli ravishda 405 va 196 kg; tuxum – 141 va 107 dona to'g'ri kelgan¹⁸.

O'zbek qishloqlaridagi ahvol bundan ham achinarli edi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonning qishloq joylarida go'sht iste'mol qilish sobiq ittifoq bo'yicha o'rtacha miqdordan 5–6 baravar; tvorog va sut mahsulotlari – 3 baravar, tuxum – 3,5, kartoshka – 4,7, baliq va baliq mahsulotlari 21,6 baravar kam iste'mol qilingan¹⁹.

Yuqorida bayon qilingan tarixiy faktlarning barchasi, tarixchi olim Hamid Ziyoev yozganidek, sobiq Ittifoqda "...xususiy mulkchilik va unga bog'liq turli sohalarning taqiqlanishi, shaxsiy tashabbus va manfaatdorlikning bo'g'ilishi, majburiy mehnat, ishga yarasha haq to'lamaslik, boqimandalik va «qorin to'ysa bas» degan tuyg'ular qulchilikning iqtisodiy zaminini yaratdi"²⁰. Bunday



iqtisodiy zamin o'zbek mehnatkashlariga ularning ongida erkin tafakkur shakli bo'lgan geoiqtisodiy tafakkurining vujudga kelishi va shakllanishiga mutlaqo imkon bermas edi.

6. Geoiqtisodiy tafakkurning shakllanishida tashqi iqtisodiy aloqalar muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, sobiq Ittifoqning ma'muriy doiralari O'zbekistonga faqat qog'ozdagina xorijiy mamlakatlar bilan aloqa qilish huquqini bergan. Aslida esa, amaldagi barcha tashqi aloqalar ularning qo'lida edi. Masalan, XX asrning 50-yillarida O'zbekiston dunyoning 32 ta mamlakatiga o'z mahsulotlarini yetkazib bergan bo'lsa, 80-yillarning boshlarida respublika ittifoq organlari orqali deyarli 90 ta xorijiy mamlakat bilan iqtisodiy aloqa o'rnatgan edi. Yetkazib berilgan tovarlar 250 xildan ortiq bo'lgan. Umuman olganda, O'zbekiston eksport mahsulotlari yetkazib berish bo'yicha ittifoqdosh respublikalar orasida RSFSR va Ukraina SSR dan keyin uchinchi o'rinda turgan, paxtachilik uchun mashinalar, to'qimachilik uskunalari, paxta tolasi, qorako'l teri, boshqa qator tovarlar yetkazib berishda birinchi o'rinni egallagan²¹. Biroq, tovarlarning eksport savdosida o'zbek mehnatkashlarining vakillari bevosita qatnashmas, ulardan tushadigan mablag'larning miqdori haqida ham hech narsani bilmas edilar.

Mustabid tuzum davrida olib borilgan tashqi iqtisodiy aloqalarning tub mohiyati haqida mamlakatimiz rahbari I. A. Karimov shunday deb yozgan edi: "Yakkahokimlik tizimi sharoitida O'zbekiston xalqaro maydonga to'g'ridan-to'g'ri va ochiq chiqish imkoniyatidan mahrum etilgan edi. Respublika, uning korxonalari to'g'ridan-to'g'ri tashqi aloqalarni mustaqil ravishda o'rnatish imkoniyatidan amalda mahrum qilingan edilar, tashqi savdo sohasida markaz yakkahokimligining qattiq tazyiqini doimo sezib turardilar. Hamma valyuta hisob-kitoblarini faqat ittifoq idoralari amalga oshirar edilar. Respublika tabiiy, xomashyo resurslari va yetishtirgan mahsuloti qayoqqa ketishini, uni eksport qilishdan tushgan mablag' kimga tegishini bilmasdi. Ayni vaqtda xorijiy texnika va texnologiyani, xalq iste'mol mollarini yetkazib berish borasida batamom qaram edi"²².

Tashqi siyosat masalasida O'zbekistonga nisbatan olib borilgan bunday amaliy xatti-harakatlar mehnatkash o'zbek xalqini jahondagi ilg'or texnologiyalar bilan bevosita tanishish imkoniyatidan mahrum qilib, uning iqtisodiy ongi o'sishi, xususan geoiqtisodiy tafakkurining vujudga kelishi yo'liga qo'yilgan sun'iy to'siqdan boshqa narsa emas edi.

Shunday bir vaziyatda, bir tomondan, xalqning iqtisodiy jihatdan nihoyatda nochor ahvolda ekanligi, ikkinchi tomondan, markscha-lenincha mafkuraning to'liq hukmronlik qilishi, uchinchi tomondan, xalqning xorijiy mamlakatlar



bilan bevosita ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar qilishi taqiqlanganligi iqtisodiy tafakkurning o'ziga xos bir shakli bo'lgan geoiqtisodiy tafakkurning bo'lishi haqida o'ylab ko'rishga ham imkon bermas edi. Aksincha, odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy dunyoqarashida imkoniyat tarzida bo'lgan bunday tafakkurni markscha-lenincha falsafiy dunyoqarashga yot bo'lgan burjuacha fikrlash uslubi sifatida inkor qilinishi o'zbeklarning ongida azaldan mavjud bo'lgan geoiqtisodiy tafakkurning tamomila inqirozga uchrashiga olib keldi.

Yuqorida keltirilgan dalillardan shunday falsafiy xulosaga kelish mumkinki, chor Rossiyasi va Qizil imperiya o'zining 130 yillik hukmronligi davridagi o'zga xalq, millat va elatlarga nisbatan yuritgan barcha ichki va tashqi siyosatida, birinchidan, ularning tabiiy boyliklarini egallab olish va shuning evaziga katta-katta foyda ko'rib, tekinga yashash; ikkinchidan, mulkdorlarni o'z mol-mulklaridan judo qilib, ularni o'zlariga tobe qilish; uchinchidan, mahalliy millat vakillari orasidan chiqqan vatanparvar, elparvar ziyolilarni har xil bahonalar bilan qirg'in-barot qilib, xalqni qo'rquvda ushlab turish; to'rtinchidan, mahalliy aholining turmush tarziga yetti yot begona bo'lgan g'oya va mafkuralarni zo'rlab singdirish orqali uni o'zligidan judo qilish; beshinchidan, millatni temir panjara orqasida ushlab turish orqali jahon hamjamiyatiga qo'shmaslik kabi bir qator qabih, jinoyatkorona ishlarni amalga oshirdilar. Natijada, o'zbek xalqi tashqi dunyodan ajralib, markscha-lenincha falsafaga asoslangan «qizil terrorchilar»ning qurboniga aylana bordi. Bularning barchasi, «sotsialistik sivilizatsiya» rivoj topib borayotganiga qaramay, o'zbek xalqining iqtisodiy tafakkuri negizlariga bolta urib, uni geoiqtisodiy tafakkur darajasida shakllantirishning moddiy zamin va ma'naviy asoslaridan judo qilgan edi.

Adabiyotlar:

1. Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865–1990 yillar). Loyiha rahbari va mas'ul muharrir: D. A. Alimova / – T.: Sharq, 2000. – B. 23.
2. O'sha manba. – B. 152.
3. Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati (1865–1990 yillar). Loyiha rahbari va mas'ul muharrir: D. A. Alimova / – T.: Sharq, 2000. – B. 153.
4. O'sha manba. – B. 154.
5. Статистический обзор Ферганской области за 1904 год. – Новый Маргелан, 1905. – С. 54.
6. Об общественно-политической обстановке и задачах партийных организаций республики. (Доклад первого секретаря сК Компартии Узбекистана, Президент Республики Узбекистан И. А. Каримова) // Правда Востока. – 1991. – 15 сентября.
7. Shamsutdinov R. O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlari. – T.: Sharq, 2001. – B. 60.
8. O'sha manba. – B. 63–64.
9. O'sha manba. – B. 60.
10. Экономика сельского хозяйства. – М.: Статистика, 1990. – С. 328.



11. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г.: Статсжегодник. – Т.: Узбекистан, 1991. – С. 272.
12. Кучерский Н. Концерн в пустыне // Звезда Востока. – 1992. – №4. – С. 6–7.
13. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – B. 282–283.
14. O'zbekistonning yangi tarixi. K. 2. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida / Tuzuvchilar: M. Jo'raev, R. Nurullin, S. Kamolov va boshq. – T.: Sharq, 2000. – B. 660.
15. Мухомел В. И. Время ответственных решение // Сотсиологические исследования. – 1989. – № 1. – С. 9-14.
16. O'zbekiston Qishloq xo'jaligi vazirligining joriy arxivi. Bosh boshqarmaning 1985 yilgi materiallari. 14-sonli yig'ma jild, 17-varaq.
17. Зиядуллаев С. Экономическая реформа в Узбекистане в действии. – Т.: 1994. – С. 10.
18. Народное хозяйство Республики Узбекистан в 1993 г. – Т.: 1994. – С. 106.
19. Убайдуллаева Р. Да, забота! Но не эмотсии // Правда Востока. – 1988. – 12 марта.
20. Ziyoev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi: (Miloddan oldingi asrlardan to 1991 yil 31 avgustgacha). – T.: Sharq, 2001. – B. 377.
21. O'zbekistonning yangi tarixi. K. 2. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida / Tuzuvchilar: M. Jo'raev, R. Nurullin, S. Kamolov va boshq. – T.: Sharq, 2000. – B. 602–603.
22. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – B. 50.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada sobiq ittifoq davrida mamlakatimizda mulkdorlarning sinf sifatida tugatilishiga qaratilgan siyosat oqibatlari yoritilgan. Uning natijasida mulkdorlarning geoiqtisodiy tafakkuri va milliy iqtisodiyotni inqirozga yuz tutishi xolati statistik ma'lumotlarga asoslangan xolda ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan asoslab berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируется последствие политику, которого была направлена на уничтожение класс собственников бывшим союзе в нашей стране. Основывается социально-экономической точкой зрения спад национальной геоекономического мышление собственников и национальной экономику с помощью статистических сведенияи.

SUMMARY

In given article the consequence to the politician whom it has been directed on destruction a class of proprietors were the union in our country is analyzed. Sight recession national geoeconomic thinking of proprietors and national economy by means of statistical data is based a social and economic point.